



ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA “VAQT” KONSEPTINI PRAGMATIK JIHATDAN O‘RGANISH MASALALARI

Sultonkulov O.J.

ADCHTI Roman-german va slavyan tillari dekan o‘rinbosari

Tayanch so‘zlar: temporal, vaqt, pragmalingvistika, lisoniy shaxs, konsept, olamning lisoniy manzarasi, semiotik uchburchak, nutqiy harakat.

Ключевые слова: темпоральность, время, прагмалингвистика, языковая сущность, концепт, языковой ландшафт мира, семиотический треугольник, речевой акт.

Key words: temporal, time, pragmalinguistics, linguistic entity, concept, linguistic landscape of the world, semiotic triangle, speech act.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslik tilni barcha fanlar bilan birgalikda tadqiq qilib, juda ko‘plab yangi yo‘nalishlarni kashf qildi. Tilshunoslikni antroposentik jihatdan “shaxs va til” juftligida o‘rganish, antropolingvistika paradigmasini vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Ushbu paradigma orqali tilga shunchaki sistema emas balki insoniyatning ajralmas bir qismi jonli hodisa kabi qarala boshlandi. Natijada zamonaviy tilshunoslik ko‘plab yangi terminlar bilan boyidi. Shu kabi terminlardan biri konsept tushunchasidir. Bugungi kunga kelib konsept muammosiga bag‘ishlangan minglab tadqiqot ishlarini topa olamiz.

Pragmalingvistik jihatdan temporallikni ya’ni “vaqt” konseptini taxlil qilish haqida gapirish, kommunikativ jarayonlarning vaqt tushunchasi bilan qanday bog‘lanishini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Vaqtning pragmalingvistik tahlili insonlarning muloqotda vaqtni qanday kontseptsiyalashini va bu umuman muloqotga qanday ta’sir qilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Yangi metodlar asosida tilshunoslikni o‘rganishga qaratilgan antroposentrik yondashuv, ma’lumki, tilshunoslikda yangi o‘rganish maydonlarini (yo‘nalishlar) ochib berdi, hamda tadqiqotchilarga tilni “lisoniy shaxs” tushunchasi prizmasi orqali taxlil qilish imkonini berdi. Vorkacho‘v S.G. makrolingvistik (til va jamiyat/madaniyat/shaxs) masalalar

bilan birinchilardan bo‘lib XX asr olimlari V. fon Gumboldt, G. Shteyntal, K. Fossler va A. A. Potebnyalar shug‘ullanishni boshladilar deya takidlaydi. [1].

“Konsept” atamasining turlicha talqinlari mavjud. Chet el tilshunoslarining tadqiqotlarida B.Uorf, J.Lakoff, M.Minsk, R.I. Pavilionis, C. Fillmor, A.A. Potebnya, S.A.Askoldov, N.Arutyunova, D.S. Lixachev, A.Vejbitskaya, A.Babushkin, E.Kubryakova, S.Nikitina, V.Teliya, V.Maslova, R.Frumkina, V.Karasik, E.Zinovyev va boshqalar, shuningdek, o‘zbek tilshunos olimlari Sh.S.Safarov, N.Maxmudov, Sh.Usmonov va boshqa olimlar “konsept” atamasining mohiyatini o‘rganish muammolari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib bordilar.

Barchamizga ma’lumki vaqt - asrlar davomida faylasuflar, olimlar va tarixchilar tomonidan o‘rganilib, muhokama qilingan fundamental tushunchadir. Bu bizning hayotimizning qiyin, ammo zarur elementidir, chunki u bizning soniya, daqiqa va kunlarimiz va hayotimizning rivojlanishini belgilaydi. Lekin vaqt nima? U qanday ishlaydi? Va biz buni qanday qabul qilamiz? Ushbu maqolada vaqt tushunchasini kundalik hayotimizda tutgan o‘rnini va pagmatik jihatdan batafsil o‘rganadi va uning turli jihatlarini muhokama qiladi.

Vaqt ijtimoiy munosabatlar va o‘zaro munosabatlarning muhim omilidir. Bu bizning fikrlash, his qilish va turli vaziyatlarda o‘zimizni tutishimizga ta’sir qiladi. Vaqtning ijtimoiy jihatlarini va uning ma’nosi jamiyat ongida juda chuqur joylashgan. Vaqt boshqalar bilan bo‘lgan munosabatlarimizga ta’sir ko‘rsatadi va vaqt tajribamizni shakllantiradi.

Gurevich A.Ya. Vaqt haqida fikr yuritar ekan quyidagi nazariyani ilgari suradi: “Biz vaqt haqida gapirsak yoki boshqalardan eshitsak u nima ekanligini tushunamiz. Qachonki men u nima ekanligiga javob bermoqchi bo‘lsam, mutlaqo oqizman. [2] Olim vaqt fenomenini madaniyat bilan bog‘lab o‘rganadi, Kazyutinskiy V.V. esa vaqt muammosi madaniyat, falsafa, ilm-fan fundamental masalasi deb takidlasa [3], professor Sing J.L. vaqtni fizik hodisa ekanligini ilgari suradi [4]. Shu va shu kabi nazariyalar juda ko‘plab topiladi. Ammo bizning asosiy maqsadimiz insonning lisoniy faoliyatida vaqt konseptini tushunish va yetkazish muammosini tahlil qilishdan iborat.

Muhokama va natijalar. Bugungi kunga qadar vaqt tushunchasini ilm-fanning turli sathlarida tahlil qilgan olimlar: A.X. Vostokov, A.A. Shaxmatova, V. Gak, N.D. Arutyunovalar tilshunoslik; I. Gant, E. Gusserl, M. Xaydegger, A. Chernyakov falsafa; I. Nyuton, A. Eynshteyn, V. German matematika va fizika hamda psixologiya jixatidan o‘rganib juda ko‘p mehnat qildilar. Vaqt tushunchasini turli prizmalar orqali tadqiq qilib, uning mohiyatini tushunishga harakat qilgan bu mutaxassislarining barchasi o‘z nazariyalarini ilgari surdilar.



Ular to'plagan bebaho bilim va tajriba zamon (vaqt) tushunchasini o'rganuvchi zamonaviy tadqiqotchilar faoliyatida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Tilshunoslikga kirib kelayotgan tadqiqotchilar olimlarning asarlarini o'rganish orqali o'z qarashlarini shakillantirib, vaqt tushunchasini o'rganish metodlarini o'zlariga kashf qilmoqdalar. Juda ko'p izlanishlarga qaramasdan bugungi kunda vaqt konsepti va uni o'rganish asnosida lingvistikaning lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika kabi bir qator yo'nalishlari muammolari hali hanus baxsli bo'lib qolmoqda.

Yuqorida takidlaganimizdek vaqt konseptiga pragmatika prizmasi orqali nazar solish uning so'zlovchi tomonidan yetkazish va tinglovchi tomonidan mutanosiblikda tushinish masalasini taxlil qilishga imkon beradi. Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi bo'lgan pragmalingvistikaning asosiy o'rganish obyekti nutqiy harakat (речево́й акт) hisoblanadi. Aynan nutq yordamida temporal so'zlarni ifodalash va tushinish ushbu ishimizning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Vaqt tushunchasi pragmatik nuqtai nazardan qiziq, chunki u nafaqat fizik miqdor sifatida vaqtning o'zini, balki uni talqin qilish va idrok etish usullarini ham o'z ichiga oladi. Vaqt haqida gapirganda, to'g'ri va o'zaro tushinishni ta'minlash uchun muloqot ishtirokchilarining konteksti, madaniy mutanosibliklari va hohish-niyatlarini hisobga olish kerak. Vaqtga munosabat madaniyatlar va shaxslar orasida katta farq qilishi mumkin, shuning uchun ushbu mavzu bo'yicha muloqot qilishda tinglovchilarni hisobga olish muhim hisoblanadi. Muloqot jarayonida madaniy va diniy tafovutlar

O'zbek tilidagi hafta kunlaridan birining nomi "juma" so'zini va islom dinida muhim hisoblangan juma kuni jamoa bo'lib o'qiladigan "juma" namozi vaqtini olsak. Ushbu ikki so'z ham bir hil shaklga ega, lekin lug'aviy ma'no jihatidan farqlanadi. Biri aynan hafta kunini bildirsa, ikkinchisi juma kunida tushlikdan so'ng jamoa bo'lib o'qiladigan namoz vaqtini bildiradi. Oshni yeb bo'lg'anlarida u yoq-bu yoqdan jum'a tovushi kela boshlag'an edi. Shuning uchun choy ichib o'lturishka to'g'ri kelmay usta Farfi usta Alimdan ilgariroq namozi jum'aga qo'zg'aldi va eshikdan chiqishi bilan o'z uyidan kelayotqandek ko'ringan Homidga uchrashdi. [c-134] A. Qodiriy, "O'tgan kunlar". Jum'a kunlari masallig'ni ko'tarib Saodatlarnikiga borar, Saodatning qo'lidan osh qildirib yeb qaytar edim. [113] A. Qodiriy, "O'tgan kunlar".

Birinchi gapda ijodkor "juma tovushi kela boshladi" juma tovushi so'z birikmasi orqali namozdan oldingi hutba ya'ni juma ma'ruzasi ovozini nazarda tutgan. "Jum'aga qo'zg'aldi" misolida esa aynan juma o'qilayotgan namozgohni nazarda tutgan. Uchinchi misolda esa "jum'a kunlari" hafta kuni

ekanligini tushunamiz mumkin. Hulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, juma so‘zi kontekstdan ayro holda ko‘proq hafta kuni sifatida qaraladi. Turli kontekstlarda kelganda so‘zning mazmuni vaziyatga qarab turlicha talqin qilinishi va anglanishi mumkin. K.Morris tomonidan ilgari surilgan semiotik uchburchak nazariyasiga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, so‘zlovchi nutqi orqali ifodalangan atama yoki nazarda tutilgan mazmun, tinglovchi ongida tasvirlanishi va anglanilishi tinglovchi va so‘zlovchi tomonidan mutanosiblikda qabul qilinishi zarur. Bunga esa faqatgini muloqotchilar tomonidan yaratilgan o‘zaro tushinish muhiti orqaligina erishish mumkin.

Shu o‘rinda Djon Ostinning nutqiy faollik nazariyasini[5] yuqorida keltirilgan misollarga qollasak, pragmalingsvistik jihatdan vaqt konseptini anglash murakkab jarayon ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Djon Ostin o‘zining nutqiy faollik nazariyasida uchta asosiy lokutiv, illokutiv va perllokutiv daraja borligini takidlaydi. Uningcha muloqot ishtirokchilarining nutqi ushbu uch darajada amalga oshadi. Ya’ni Lokutiv daraja fonetik (tovush), grammatik (so‘zlarning o‘z o‘rnida qo‘llanishi), semantik (mazmun) birliklarga ega bo‘lgan nutqni nazarda tutadi. Illokutiv daraja nutqning kommunikativ maqsadini ya’ni nutqning nima maqsadda ifodalanishini anglatadi. Perllokutiv daraja esa nutqning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun va nutqdan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qo‘shimchalar qo‘shish va tinglovchiga (adresatga) atayin tasir ko‘rsatish vositalarini nazarda tutadi.

Yuqorida takidlangan nutqiy darajalarni misollar bilan tahlil qilib ko‘ramiz. Yigit sho‘rlik jon berayotganida o‘zi iqror bo‘libdi:... «Shu gap,— deydi Sodiqjon,— keyinchalik jangchilar orasida maqol bo‘lib ketdi». (Abdulla Qahhor - Asror bobo hikoyalari). Birinchi gapda “jon berayotganida” ma’lum bir vaqtni ifodalayotgan lokutiv daraja bo‘lsa, ikkinchi gapda “keyinchalik” aynan oldingi gapda nazarda tutilgan vaqtga ishora qilib undan keyin sodir bo‘lgan vaqtga nisbatan illokutiv va bir vaqtning o‘zida perllokutiv darajalarda kelgan. Asrorqul erta bilan barvaqt turib ketdi. (Abdulla Qahhor - Asror bobo hikoyalari). Bu misolda “erta” va “barvaqt” so‘zlari bir birini to‘ldirib vaqtni yanada aniqroq ifodalashga hizmat qilgan. Ushbu gap nutqiy darajalarning uchchallasiga ham tegishli bo‘la oladi. Bu borada Djon Ostin ham bir ifodada barcha nutqiy darajalar mujassam bo‘lishi haqida takidlab o‘tgan.

Xulosa.Yuqorida keltirilgan nazariyalardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, pragmalingsvistik jihatdan “vaqt” konseptini tahlil qilish tilshunosligimizning dolzarb masalalaridan biridir. Temporallikni tahlil qilish orqali progmalingsvistikani bazi muammolari va o‘rganilishi kerak bo‘lgan masalalariga e’tiborni kuchaytirish kerakligini anglab yetamiz.



Vaqt tushunchasini pragmalingsvistik nuqtai nazardan tahlil qilish til va muloqotni tushunishimizga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ko'plab qiziqarli jihatlarini ochib beradi. Temporal birliklarni o'rganish bizga til bizning vaqt haqidagi tasavvurimizni qanday aks ettirishi va tuzilishini, shuningdek, vaqt haqidagi qanday tushunchalar madaniy jihatdan aniqlanganligini va tillar va madaniyatlarda farq qilishi mumkinligini tushunishga imkon beradi. Bu, ayniqsa, tarjima va madaniyatlararo muloqot uchun muhim bo'lishi mumkin. Bunday tahlil matn va suhbatda vaqtinchalik munosabatlarni ifodalash va idrok etish usullarini ham yoritishi mumkin, bu esa turli kontekstlarda muloqot strategiyalari va mexanizmlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Воркачев С. Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки - 2001 - № 1. - С. 64-72.

2. Гуревич А.Я. Избранные труды. Средневековый мир. - СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2007. - 560 с. с-101

3. Уитроу Дж. Структура и природа времени/Современные проблемы астрофизики: Пер. с англ. - М.: Знание, 1984. - 64 с. - (Новое в жизни, науке, технике. Сер. «Космонавтика, астрономия», № 6). С-3

4. Уитроу Дж. Естественная философия времени: Пер. с англ. / Общ. ред. М. Э. Омелянковского. Изд. 2-е, стереотипное. - М.: Едиториал УРСС, 2003. - 400с. С-7

5. «Теории»: Концепция речевых актов Дж. Остина. Как управлять вещами при помощи слов? concepture.club. «Concepture» (17 июля 2016). - В нашей жизни язык играет огромную роль. Речь - это то, что отличает нас от животных. «Concepture» публикует обзор, посвященный теории речевых актов Джона Остина. Дата обращения: 5 февраля 2024. Архивировано 30 октября 2018 года.

Vebsayt

1. Abdulla Qahhor. "Asror bobo hikoyasi". <https://lib.jbnuu.uz/storage/books/October2022/49A3wZgIiqXKFwWICsvB.pdf>

2. Abdulla Qodiriy, "O'tgan kunlar". https://e-library.namdu.uz/84%20Badiy%20adabiyot%20asarlar/a_qodiriy_utgan_kunlar_namdu_uz.pdf

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolamizda biz konsept darajasiga chiqqan "Vaqt" tushunchasi haqida mulohaza yurutamiz. Shuningdek vaqtni idrok etishimiz va tushunishimiz yanada mazmunli ijtimoiy aloqalar va tajribalarni yaratish uchun qanday ishlatilishini ko'rib chiqamiz. Vaqt konseptini pragmalingsvistik tahlil qilib muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro tushinish, kontekstual muammolarni aniqlashimiz, shuningdek, bizni birlashtiradigan tajribalarni optimallashtirish yo'llarini topishimiz mumkin.

РЕЗЮМЕ

В данной статье мы рассмотрим понятие «Время» на уровне понятия. Мы также исследуем, как наше восприятие и понимание времени можно использовать для создания более значимых социальных связей и опыта. Прагмалингвистический анализ понятия времени позволяет выявить взаимопонимание между участниками, контекстуальные проблемы и найти пути оптимизации объединяющего нас опыта.

SUMMARY

In this article we will consider the concept of "Time" at the conceptual level. We will also explore how our perception and understanding of time can be used to create more meaningful social connections and experiences. Pragmalingsvistic analysis of the concept of time allows us to identify mutual understanding between participants, contextual problems and find ways to optimize the experience that unites us.